

QASHQADARYO HAVZASIDA AGROLANSHAFTLARNING VUJUDGA KELISHI

Abdullayev S.I – *Qarshi davlat universiteti dotsenti*

Movsuddinova D.T – *Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.*

Annotatsiya: *Maqolada Qashqadaryo havzasida agrolandshaftlarning vujudga kelish jarayoni tabiiy-geografik sharoitlar va antropogen omillar ta'sirida tahlil qilingan. Sug'orish tizimlarining rivojlanishi, yer resurslaridan foydalanish va qishloq xo'jaligi faoliyatining agrolandshaftlar shakllanishidagi roli yoritilgan. Hududiy agrolandshaftlarning hozirgi holati va ularning barqaror rivojlanish masalalariga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Qashqadaryo havzasi, agrolandshaft, sug'orish, antropogen omillar, yer resurslari*

EMERGENCE OF AGROLANCES IN THE KASHKADARYA BASIN

Abdullayev S.I. – *Associate Professor of Karshi State University*

Movsuddinova D.T - *Student at Karshi State University. Uzbekistan*

Abstract: The article analyzes the process of the formation of agrolandscapes in the Kashkadarya basin under the influence of natural and geographical conditions and anthropogenic factors. The development of irrigation systems, the use of land resources and the role of agricultural activities in the formation of agrolandscapes are highlighted. Attention is paid to the current state of regional agrolandscapes and the issues of their sustainable development.

Keywords: Kashkadarya basin, agrolandscape, irrigation, anthropogenic factors, land resources

Landshaftlarning antropogen o'zgarishi muayyan hududda inson band etgan kundan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrdagi tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirining murakkab tarixiy jarayonidir. Shu sababli antropogen landshaftlarni o'rganishda ularning vujudga kelishi va rivojlanishining sotsial – tarixiy sharoitlarini ham e'tiborga olmoq zarur. Qashqadaryo vodiysi nafaqat O'rta Osiyoda, baki butun jahon tamadunining eng qadimiy o'choqlaridan biridir. Qadimiy shaharlar, sug'orish inshootlari bu hududda inson va tabiat o'zaro ta'sirining qadimiyligidan guvohlik beradi. Bu hudud ham Amudaryo, Zarafshon va bosqa yirik daryo vodiylari kabi ming yillab tarixga ega bo'lgan dehqonchilik madaniyati rayonlaridir. Shu sababli bu yerda tabiatning o'zgarishi va antropogen landshaftlarning shakllanishida inson omilining roli juda katta.

O.Y.Poslavskayaning (1966) yozishicha, qadimiy sugʻorish yerlarida topilgan sopol parchasi miloddan avvalgi III asrga mansub.

Qashqadaryo vohasining hududi ham qadimdan inson faoliyatining turli shakllaridagi taʼsiri ostida boʻlganligi sababli bu hududda hozirgi paytda butun Oʻrta Osiyo hududi uchun xos boʻlgan barcha turdagi antropogen landshaftlar tarqalgan. Qashqadaryo vohasi doirasida Oʻtkazilgan arxeologik tadqiqotlar bu hududdagi antropogen landshaftlarning ancha qadimiyligidan dalolat beradi. Bu hududda qadimiy aholi manzilgohlari, lalmikor va obikor dehqonchilik bilan bogʻliq boʻlgan seliteb va agrolandshaftlar keng tarqalgan.

Maʼlumki, Oʻrta Osiyo dehqonchilik, ayniqsa obikor dehqonchilik vujudga kelgan va rivojlangan qadimiy uchoqlaridan biri hisoblanadi. S.P. Tolstov (1948) va Y.Gʻ. Gʻulomovning (1957) maʼlumotlariga koʻra, Oʻrta Osiyo hududida sugʻorish qoʻllanilgan eng dastlabki dehqonchilik Xorazm vohasida vujudga kelgan. Keyinchalik katta-kichik daryo vodiylariga tarqala boshlagan.

Qashqadaryo havzasida ham qulay tabiiy sharoitlarning mavjudligi tufayli insoniyat tarixining dastlabki davrlaridanoq qishloq xoʻjaligi bilan bogʻliq boʻlgan agrolandshaftlar vujudga kela boshlagan va ularning maydoni uzluksiz kengaya borgan.

Qashqadaryo havzasi va uning yaqin atrofidagi hududlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu yerda eneolit davrida (miloddan avvalgi 4 – 3 – ming yilliklarda tosh davri tugagan va eneolit davri boshlangan) suv havzalari yaqinida dastlabki aholi manzilgohlari – qishlov joylari (qishloqlar) vujudga kelgan va ularning aholisi dehqonchilik bilan shugʻullanishgan.

Jez davrida Qashqadaryo vohasi shu davrda shakllangan Baqtriya dehqonchilik madaniyati tarkibiga kirgan. Lalmi va obikor yerlarda bugʻdoy, arpa, suli, paxta, yetishtirilgan.

Temir davrida (miloddan avvalgi 8 – 6 aslar va undan keyingi davrlar) dehqonchilik maydonlari kengayadi va sugʻorish inshootlari barpo qilishga qaratilgan tadbirlar oʻtkazila boshlaydi. Hozirgi Samarqand, Buxoro va

Qashqadaryo viloyatlarida miloddan avvalgi 1–ming yillikka oid qadimgi sugʻd dehqonchilik madaniyati shakllanadi.

Jez va temir davrlarining tabiiy sharoitlari paleogeografik va tarixiy geografik tadqiqotlarga koʻra hozirgidan kam farq qilgan. Topilgan arxeologik materiallar jez davrida odamlar chorvachilik va dehqonchilik bilan shugʻullanishgan. Bu davrda vodiylar hududini oʻzlashtirish sunʼiy sugʻorishni rivojlantirish yoʻli bilan borgan. Hali oddiyligi bilan xarakterlanadigan sunʼiy sugʻorish yordamida daryo vodiysining quyi terrasalari, delʼtasi, soylarning soxillaridagi yerlar oʻzlashtirilgan. Jez va temir davrining aholisi sonining kamligi va ishlab chiqarish kuchlarining primitive holda rivojlanganligi tufayli hududni oʻzlashtirish uchun osonroq boʻlgan, suv chiqarish imkoniyatlari boʻlgan yerlar dehqonchilikda foydalanilgan va shu sababli oʻzlashtirilgan yerlar “orolchalar” koʻrinishida boʻlgan.

Qashqadaryo havzasining ayrim hududlarini oʻtmishda ham qoʻshni havzalarning suv resurslaridan foydalanilgan holda sugʻorish ishlari amalga oshirilgan. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Qashqadaryo havzasining quyi qismlaridagi ayrim hududlarni sugʻorish uchun milodga qadar birinchi ming yillikda Dargʻom (Zarafshon daryosidan suv oladigan sunʼiy sugʻorish tarmogʻi) arigʻidan suv olish va sugʻoriladigan yerlar maydonlarini kengaytirish maqsadlarida Monas arigʻi qazilgan (keyinchalik bu ariq Eskianhor nomini olgan). Uzunligi 300 km dan ortiqroq boʻlgan Monas arigʻi XIII asrda mugʻullar isteʼlosi davrida buzub tashlangan va koʻp yillar davomida tashlandiq holda yotgan.

Tarixiy davrning boshlarida ham ishlab chiqarish kuchlarining past darajasi katta maydonlarda antropogen landshaftlarni vujudga kelishiga imkon bermagan. Hududlarni oʻzlashtirish va sugʻorish tabiiy sharoitlariga va shu davrlarda mavjud boʻlgan davlatlarning siyosiy-iqtisodiy xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan. Qashqadaryo havzasiga kirgan Yunon – Baqtriya (miloddan avvalgi 3 – 2-asrlar), Kanga (miloddan avvalgi 5-asr oʻrtalari) va Kushon (miloddan avvalgi 1-asr –

milodiy 3-asr) davlatlarida sug'orish inshootlarini qurush va sug'orna dehqonchilik ancha ravnaq topganligi boisida agrolandshaftlarning maydonlari ancha kengayib borgan. Zamonasining buyuk davlatlaridan Kaga podsholigi va Kushon saltanati ravnaq topgan davlatlarda dehqonchilik tufayli vujudga kelgan voha landshaftlarining maydoni kengayadi, daryo vodiysida bir qancha sug'orish tarmoqlari barpo etilib, sug'oriladigan yerlarni maydoni ancha kengayadi. G'allachilik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari ham kengayadi. Mirishkorlarning asrlar davomomida sug'orish, milioratsiya va ekin yetishtirish agrotexnikasi, xususan yer maydonlarga ishlov berish sohasida ortirilgan tajribalari nisbatan mo'l hosil olinadigan imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Olib borilgan arxeologek tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, eftaliylar (5-asr o'rtalri) davlati tarkibiga kirgan Qashqadaryo hududida ham ko'chmanchi eftaliylar qabilalarining ommaviy ravishda o'troqlashuvining kuchayishi natijasida sug'oriladigan yerlarda bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, seliteb landshaftlar hamda agroirrigatsiya landshaftlarining maydoni kengayadi. Daryo vodiysi bo'ylab katta-kichik su'gorish uchun qazilgan ariqlar barpo etiladi. Irrigatsiya texnikasi ham rivoj topadi ("O'zbekiston Respublikasi, Ensiklopediya. T, 1997).

Qashqadaryo havzasida IX – X asrlarda ham irrigatsiyaning rivojlanganligi va sug'oriladigan yerlarning yuqori hosildorligi to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ammo mug'ullar istelosidan sunggi davrlarda sug'orish inshootlarining buzulib tashlanishi yoki iqtisodiy nochorlik tufayli ularning tashlandiq holda kelishi va natijada sug'orma dehqonchilikning tanazzuli sodir bo'ladi. Bunday hollarda antropogen landshaftlarning qayta tabiiylashuv jarayoni kuchayadi.

Sug'orish tarmoqlarining ravnaq topishi va sug'orma dehqonchilikning rivoji buyuk Sohibqiron Amir Temur davrida ham kuzatilgan. Bu davrda katta – kichik ariqlar, suv omborlari barpo etiladi, Eskianxor (Monas) arig'i qayta tiklanib ta'mirlanib foydalanila boshlaydi. Qayta ta'mirlangan Eskianxor arig'i bir necha o'n yillar davomida Qarshi cho'lida agroirrigatsiya landshaftlarining mavjud

bo'lishini hamda aholi manzilgohlari bilan band bo'lgan siletib landshaftlarni suv ta'minotini yaxshilash imkon beradi. Saqlanib qolgan ma'lumotlar Amir Temur davrida obikor dehqonchilik ancha taraqqiy etganligidan darak beradi. Bu davrda Qashqadaryo havzasida ham ariqlarning qayta ta'mirlanganligi, ariqlar qazilganligi agroirrigatsiya landshaftlarining ancha kengayishi uchun imkoniyat yaratgan.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida davlat hokimiyati markazlashuv jarayonlarining kuchayishi natijasida sug'orish ishlarining bir muncha rivojlantirishi uchun sharoitlar yaratadi. 1785 – 1800-yillarda Qashqadaryo va uning irmoqlaridagi tug'onlar suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish maqsadida buzib tashlandi, yangi ariqlarda, to'g'onlar va dambalar ta'mirlandi.

Qashqadaryo havzasida qishloq xo'jaligi va irrigatsiyani rivojlantirish sohasidagi katta ishlar XX asrning 30-yillaridan boshlandi. 1929-yilda "O'zsuv ishlab chiqarish" loyihalash instituti "Qashqadaryo havzasida yer-suvdan foydalanish tarhi" ni tuzib chiqdi. Suv resurslarini o'rganish va tuproqlarni tadqiq qilish asosida havzada sug'orish uchun 877 ming ga yerning yaroqli ekanligini aniqladi, 56 ming ga yerni sug'orish uchun suv ombori qurish belgilandi. Loyiha institutning tarhida Qashqadaryo havzasida suv bilan ta'minlashni yaxshilash natijasida Amudaryo va Zarafshonning suvlaridan foydalanish tavsiya etilgan edi. Ammo bu tavsiya texnik jihatdan murakkabligi va bajarilishi lozim bo'lgan ishlarining katta miqdorda sarf xarajatlarni talab etishi tufayli keyingi yillarga qoldirildi.

1925-1930-yillarda Qarshi cho'li doirasida bir qator ariqlar (Patron, Talikaron, Fazli, Qovchin va b.) qurub bitkazildi va buning natijasida sug'oriladigan yerlarning agroirrigatsiya landshaftlari bilan band bo'lgan maydonlarini ancha kengaytirish imkoniyatlari vujudga keltirildi.

Qashqadaryo havzasida katta miqyosdagi suv qurulishi va antropogen landshaftlar maydonining kengaytirilishiga doir ishlar XX asrning 50-yillarida boshlandi. 1948-yilda yuqorida nomi qayd etilgan loyihalash instituti (bu institutning nomi keyinchalik "O'rta Osiyo suv loyihalash" nomini olgan)

tomonidan uzunligi 184 km boʻlgan eski Anhor kanalini qayta tiklash loyihasi tayyorlandi. Suv xarajati bosh qismida $45 \text{ m}^3 / \text{sek}$ ni tashkil etadigan bu kanal 1955-yilda foydalanishga topshirildi. Kanalning qurulishi natijasida Zarafshon daryosining 240–300 ming m^3 miqdoridagi suvlari Qashqadaryoga tashlanadi.

1961-yil “Sredazxlopok” institutida Qarshi choʻlining sugʻorish va oʻzlashtirishning bosh tarhini tayyorlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Oʻtgan yillarda shu tarh asosida uzunligi 150 km boʻlgan Qarshi bosh va uning tarmogʻi boʻlgan Kasbi kanallari, suv sigʻimi $1,8 \text{ km}^3$ boʻlgan Tallimarjon quyilma suv ombori qurib bitkazildi va foydalanishga topshirildi. Qarshi bosh kanaliga har sekunda 200 m^3 suvni 132 m balandlikka koʻtarib beradigan nasos stansiyalari qurildi.

1957-1987-yillarda suv sigʻimiga koʻra turlicha boʻlgan 14 ta suv omborining qurib bitkazilishi va foydalanishga topshirilishi natijasida Qashqadaryo havzasining yuqori va oʻrta qismlarining suv taʼminotini tubdan yaxshilash imkonini berdi.

Qashqadaryo havzasida insonning turli xildagi faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan landshaftlarning oʻzgarishi va antropogen landshaftlarning yuzaga kelishi sodir boʻlgan. Bu yerda tubdan oʻzgartirilgan texnogen landshaftlar, seliteb landshaftlar, suvli (akval) landshaftlar vujudga kelgan. Ammo ularning maydoni agrolandschaftlar bilan band boʻlgan landshaftlarning maydoniga nisbatan ancha kam va ularning aksariyat katta qismini yirik masshtabli xaritalardagina ajratish mumkin.

Qoratepa, Chaqilkalon va Hisor togʻlarining yonbagʻrlarida qurulishbop materilallarni olinishi sababli karyerlar hosil boʻlgan. Keyingi yillarda Qamashi va Dehqonobod hududlaridagi osh tuzlari zaxiralaridan ayrim joylarda foydalanila boshlaganligi sababli ham texnogen landshaftlar vujudga kela boshladi. Texnogen landshaftlarning tekisliklarda vujudga kelishi neft, gaz va gaz kondensati qazib olish bilan bogʻliq.

Qashqadaryo vohasi landshaftlarini tabiiy va antropogen omillar ta'siri ostida rivojlanishi va antropogen landshaftlarning shakllanishini Inson tabiatdan foydalanish jarayonida unga xilma-xil ta'sir ko'rsatadi va buning oqibatida tabiiy muhitda muayyan o'zgarichlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarichlar orasida insonning hayotiy yoki ichlab chiqarich faoliyati uchun salbiy sajiyaga ega bo'ladigan o'zgarishlarning bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Shu sababli tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish tabiatga ta'sir ko'rsatich jarayonida turli landshaftlarda va ularni tashkil etuvchi komponentlarda qanday o'zgarichlar sodir bo'lishini majmualiy tadqiq qilishni taqozo etadi.

Shunday qilib, Qashqadaryo havzasida turli tarixiy davrlarda inson o'zining ishlab chiqarish jarayonida tabiiy landshaftlarga ta'sir ko'rsatgan va turli xildagi antropogen landshaftlarning shakllanishiga imkoniyat tug'dirgan. Qashqadaryo havzasida agrolandschaftlar asosan sug'oriladigan dehqonchilik va inson faoliyati ta'sirida shakllangan. Tabiiy sharoitlar bilan uyg'un holda olib borilgan xo'jalik faoliyati hududning qishloq xo'jaligi salohiyatini oshirgan. Agrolandschaftlarni ilmiy asosda boshqarish va muhofaza qilish ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev S.I., Muqimova H. I. Agrolandschaftlarning xususiyatlari va funksiyalari. Life Sciences and Agriculture (ISSN 2181 -0761, <https://doi.org/10.24411/2181-0761>) – tabiiy fanlar va qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha. Andijon 2020 20 – avgust
2. Abdullayev S.I., Muqimova H.I., Qozoqova O.X. Agrolandschaft to'g'risidagi nazariy tasavvurlar // Фундаментал ва амалий географик тадқиқотларда инновациялар. Республика илмий-амалий конференцияси, 14-15 октябрь 2022 йил. Т., – 2022.
3. Абдуллаев С.И., Муқимова Ҳ.И. Қашқадарё вилоятида сув ресурсларининг шаклланиш хусусиятлари // Рациональное использование природных ресурсов южного Приаралья. Материалы республиканской научно-практической конференции. Нукус, 2013
4. Бекмамадова Г.А., Юнусов Ғ.Х. Қашқадарё вилояти сув ресурслари ва улардан самарали фойдаланиш. – География: тарих, назария, методлар, амалиёт. Конференция материаллари. Т., 2010.

5. Муртазаев Б.Ч. Қашқадарё вилоят ер ресурсларидан яйловлар сифатида фойдаланиш // Илм, фан ва тараққиёт. Илмий-амалий конференцияси материаллари. Қарши “Насаф” – 2007. 41-42.
6. Ҳикматов Ф.Х. ва б., Сув ресурслари миқдор ва сифат жиҳатдан муҳофаза қилиш. // География ва табиий ресурслардан фойдаланиш (илмий конференция материаллари). Т., 2010.
7. Бабушкин Л.Н. Когай Н.А.Закиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана. Т., 1985.